

**«O'zavtoyol» DAK Avtomobil yo'llaridan foydalanishni  
texnik ta'minlash, transport va mexanizatsiyalash  
boshqarmasining faoliyati to'g'risida  
NIZOM**

**1. U mumiyl qoidalar**

1. «O'zavtoyol» DAK Avtomobil yo'llaridan foydalanishni texnik ta'minlash, transport va mexanizatsiyalash boshkarmasi (bundan keyin boshkarma deb yuritiladi) kompaniya ijro apparatining funktsional tarkibiy qismi bo'lib, o'z faoliyatini Uzbekistan Respublikasining «Avtomobil yo'llari to'grisida»gi qonuni, xam da amaldagi boshqa qonunlari, Uzbekistan Respublikasi Prezidentining 25.10.2006 yil PP-499-sonli, 14.11.2006 yil PP-511 sonli va 20.12.2006 yil PP-535 sonli qarorlari, Uzbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 21.08 dagi 361-sonli, 01.12.2006 yil 226-sonli qarorlari va «O'zavtoyol» DAKning Ustavi asosida olib boradi.

2. Boshqarmaning ish yuritishi «O'zavtoyol» DAKning Ustavi, kompaniya Kengashi xamda Boshqaruvi qarorlari, Boshqaruv raisi va rais o'rinbosarlari buyruq, farmoyish va topshiriqlari mazkur nizomga muvofiq rejalashtirilgan xolda tashkil etiladi. Boshkarma o'z faoliyatini kompaniyaning tarkibiy bo'linmalari, tashkilotlari va korxonalarini bilan o'zaro xamkorlikda amalga oshiradi.

3. Boshkarma xodimlarining shtat jadvali kompaniya Boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

**II. Boshkarma xukuklari**

Boshqarmaga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda yo'l xo'jaligi tashkilotlari va korxonalarining mutasaddi mutaxassislarini jal b kilish;

- barcha davlat muassasalarida va jamoatchilik tashkilotlarida o'zining vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha kompaniya nomidan faoliyat yuritish;

- o'z vazifalari va vakolati doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha Yo'l Xo'jaligi kengashi va kompaniya Boshqaruvi muxokamasiga takliflar kiritish;

- o'z vakolatlari doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha yo'l tashkilotlari va korxonalariga ko'rsatmalar berish, ularning bajarilishini, shuningdek, tegishli ma'lumotlarni berishnitalab qilish xuquqiga ega.

**III. Boshqarmaning javobgarligi**

- boshkarma o'ziga yukorida yuklatilgan vazifalarni belgilangan tarzda va muddatda xamda sifatli bajarilishi uchun;

- yo'l xo'jaligi korxonalarini belgilangan m'eyorlar asosida texnika ta'minotini tashkil etish, soxada transport xizmati samaradorligini oshirish, zamonaviy texnika va texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish, yo'l qurilish texnikasi, mashina-mexanizmlari va asbob uskunalarini ta'mirlash xamda zaxira qismlarni ishlab chiqarishning yagona siyosatini va nazoratini olib borishga javobgardir.

**IV. Boshkarma boshlig'ining vazifalari**

Avtomobil yo'llaridan foydalanishni texnik ta'minlash, transport va mexanizatsiyalash boshkarmasi boshlig'i va mutaxassislari kompaniya Boshqaruvi raisi buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi. Boshkarma boshlig'i sohaga tegishli Uzbekistan Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlarini, Vazirlar Maxkamasining karorlarini, «Uzavtoyol» DAK boshqaruvining boshkarma vakolati doirasidagi buyruq va farmoyishlarni to'la o'zlashtirib ish jarayonida qo'llashi lozim. Kompaniya ustavini, yo'l sohasi ahvoli, prognozi va ta'minoti, rivojlangan davlatlar yo'l

texnikalari va texnologiyalari konyukturasini hamda ta'minot masalalari bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Ushbu lavozimga oliy ma'lumotli, yo'l sohasi da kamida 5 yil ish stajiga ega, texnika va ta'minot masalalari bo'yicha bilimga va boshqari qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassis tayinlanadi.

Boshqarma boshlig'i boshqarmaning faoliyati yuzasidan kompaniya Kengashiga, kompaniya boshqaruvi raisi va o'rinbosarlariga xisobot beradi, boshqarmaga bevosita raxbarlik qiladi va mutaxassislar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi.

Boshqarma boshlig'i respublika yo'l jamg'armasi mablag'i xisobiga yo'l xo'jaliklariga yo'l qurilish texnikasi, mashina-mexanizmlar va asbob-uskuna xamda ehtiyot qismlar bilan ta'minlash xamda ularni xisobdan chiqarish tizimi bo'yicha o'z vakolati doirasida, tashkiliy va nazorat ishlarini olib boradi. «O'zyo'lbutlash» boshqarmasini ishini, viloyat xududiy yo'llardan foydalanish tashkilotlarining texnik ta'minoti bo'yicha faoliyat olib boradi.

Kompaniya raxbariyati yig'ilishlari va uning topshiriqlari asosida boshqa organ va tashkilotlarda boshqarmaga mutasaddilik qiladigan soxaga kiruvchi masalalar bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarda qatnashadi. Boshqarma vakolati doirasida chikuvchi xat-xabarlarni imzolaydi. Boshqarma mutaxassislarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish, ularning malakasini oshirish, ragbatlantirilishi xaqida kompaniya raxbariyatiga takliflar taqtsim etadi.

1. Yuqoridagi qonun va qarorlardan kelib chiqqan holda va yo'l xo'jaligi tashkilotlari xamda korxonalari bilan birgalikda, o'z vakolati doirasida, amalga oshiriladigan quyidagilar boshqarma boshlig'ining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Uzbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiqlangan TEO asosida Moliya vazirligi huzuridagi Respublika Yo'l jamg'armasi mablag'i hisobiga va yo'l xo'jaliklarini yo'l qurilish texnikasi va asbob uskuna xamda zaxira qismlari bilan ta'minlash tizimini o'z vakolati doirasida boshqarish, doimiy nazoratini olib borish;

- Uzbekistan Respublikasi Prezidentining 20.12.2006 yil PP-535 sonli qarorining 5 bandita muvofiq, 2007 yil 1 yanvaridan boshlab «O'zavtoyol» DAK tarkibiy bo'linmalari uchun keltiriladigan yo'l qurilish texnikasi va asbob uskuna xamda zahira qismlarini boj to'lovlaridan ozod etilishini doimiy ta'minlash va nazorat qilish;

avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish ishlarini bajarilishi uchun sotib olinadigan yo'l qurilish industriyasi ob'ektlarini loyixa xujjatlariga kiritilishini nazorat qilib borish;

- yo'l qurilish industriyasi yangi korxonalarini tashkil etish va faoliyat ko'rsatayotganlarini rekonstruktsiya qilish bo'yicha kompaniya Boshqaruviga takliflar tayyorlash;

- «O'zavtoyol» DAK tarkibidagi barcha yo'l tashkilotlari va yo'l xo'jaliklari bilan, o'z vakolati doirasida, avtomobil yo'llarini saqlash va ulardan foydalanish, ta'mirlash, qurish va qayta qurish ishlarini texnik ta'minlash masalalarini doimiy nazoratini tashkil etish, ushbu faoliyat bo'yicha monitoringni ta'minlash, xamda taxdil etish va soxaga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriyetish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

#### **V. Boshqarma bosh mutaxassisining vazifalari**

Boshqarma bosh mutaxassislari boshqarma boshlig'ining tavsiyasi asosida kompaniya Boshqaruvi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

O'z ish faoliyati bo'yicha boshqarma boshlig'iga va kompaniya raxbariyatiga bo'ysunadi. O'ziga birlashtirilgan masalalar bo'yicha xujjatlar loyixalarini tayyorlaydi,

materiallarni o'z vaqtida sifatli tayyorlanishiga va ishonchliligiga xamda buyruqlar va topshiriqlarni bajarilishi bo'yicha nazoratni tashkil etishiga shaxsan javob beradi. Bosh mutaxassis boshqarma vakolati doirasida tarmoq bo'yicha turkumlangan ma'lumotlarning ishonchlilik bazasini yaratishni va yuritishni, uning muntazam ravishda yangilab borilishini tashkil etadi.

O'ziga biriktirilgan masalalar bo'yicha axborotlarni umumlashtiradi, zarur taxliliy materiallarni, prognozlar va ekspert xulosalarini tayyorlaydi xamda boshqarma boshlig'iga, shuningdek, belgilangan tartibda kompaniya raxbariyatiga axborot beradi.

Boshqarma bosh mutaxassisi soxaga tegishli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlarini to'la o'zlangiradi hamda sohaga tatbiq etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlarini, «O'zavtoyoyol» DAK Boshqaruvining boshqarma vakolati doirasidagi buyruq va farmoyishlarini, kompaniya Ustavini, o'ziga biriktirilgan masalalarning yo'l sohasidagi ahvoli, prognozi va zamonaviy texnika, texnologiyasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi shart.

- yo'l industriyasi korxonalarining material-texnik bazasini mustahkamlash, hamda modernizatsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- yo'l xo'jaligi korxonalarida qora va rangli metall chiqindilarini (metallom) Iste'molchiga topshirish rejalarini bajarilishini taxlil qilib borish va ushbu masala bo'yicha kompaniya raxbariyatiga takliflar kiritish;

- «Uzyo'lbutlash» boshqarmasi bilan yo'l soxasini texnik ta'minoti bo'yicha rejaviy, tashkiliy, amaliy va nazorat yo'nalishida faoliyat olib borish;

- yo'l xo'jaligi tashkilotlari mexaniklari va mexanizatorlarini malakasini oshirish tadbirlarini tashkillashtirish.

Bosh mutaxassis lavozimiga oliy ma'lumotli, yo'l soxasida kamida 5 yillik staji bor, o'ziga biriktirilgan vazifalar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassis tayinlanadi.

Boshqarma boshlig'i vaqtinchalik bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bajaradi.

## **VI. Boshqarma bosh mutaxassisining vazifalari**

Boshqarma bosh mutaxassisi boshqarma boshlig'ining tavsiyasi asosida kompaniya Boshqaruvi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Uz ish faoliyati bo'yicha boshqarma boshlig'iga va kompaniya raxbariyatiga bo'ysunadi. O'ziga biriktirilgan masalalar bo'yicha xujjatlar loyixalarini tayyorlaydi, materiallarni o'z vaqtida sifatli tayyorlanishiga va ishonchliligiga xamda buyruqlar va topshiriqlarni bajarilishi bo'yicha nazoratni tashkil etishiga shaxsan javob beradi. Bosh mutaxassis boshqarma vakolati doirasida tarmoq bo'yicha turkumlangan ma'lumotlarning ishonchlilik bazasini yaratishni va yuritishni, uning muntazam ravishda yangilab borilishini tashkil etadi.

Uziga biriktirilgan masalalar bo'yicha axborotlarni umumlashtiradi, zarur taxliliy materiallarni, prognozlar va ekspert xulosalarini tayyorlaydi xamda boshqarma boshlig'iga, shuningdek, belgilangan tartibda kompaniya raxbariyatiga axborot beradi.

Boshqarma bosh mutaxassisi soxaga tegishli Uzbekistan Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlarini to'la o'zlashtiradi hamda sohaga tatbiq etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlarini, «O'zavtoyoyol» DAK Boshqaruvining boshqarma vakolati doirasidagi buyruq va farmoyishlarini, kompaniya Ustavini, o'ziga biriktirilgan masalalarning yo'l sohasidagi ahvoli, prognozi va zamonaviy texnika, texnologiyasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi shart.

- yo'l qurilish texnikasiga xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash maqsadida zamonaviy ta'mirlash-ishlab chiqarish quvvatlarini bunyod etish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- avtomobil yo'llarini saqlash va joriy ta'mirlash ishlari uchun olinadigan texnologik asbob-uskuna, texnika va mashina-mexanizmlar ro'yxatini tayyorlash, Iqtisodiyot vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan muvofiqlashtirilgan holda kompaniyada tasdiqlanishini doimiy ta'minlash;

- tarmoq yo'l xo'jaligi korxonalarida yoqilgi energetika resurslaridan tejamli foydalanilishi va iqtisod qilinishi bo'yicha taxlil axborot to'plamini olib borish va lozim bo'lganda kompaniya raxbariyatiga takliflar kiritish;

- korxonalar balansidagi temir yo'l shaxobchalarida xarakat xavfsizligini ta'minlash, temir yo'l vagonlarini, lokomotivlarni hamda stantsiyalarni saqlash va joriy ta'mirlash ishlari nazorat qilish;

materiallarni qazib chiqarish balansidagi 5-GR xisobotini qabul qilish va Uzgeofondga topshirish;

- korxonalar rekultivatsiya qilish hamda ekologiyani saqlash bo'yicha 6-E yillik xisobotlarini qabul qilish va Respublika statistika Boshqarmasiga topshirish;

Bosh mutaxassis lavozimiga oliy ma'lumotli, yo'l sohasida kamida 5 yillik staji bor, o'ziga birlashtirilgan vazifalar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassis tayinlanadi.

Yo'l qurilish materiallari bilan ishlashda ligan ta'ssirotalar barchasi o'rnatilgan tartibda bajarilishi lozim.